

**OMON MATJON SHE'RIYATIDA KONSEPTLAR VA ULARNING LISONIY
IFODASI****Karimova Maftuna Elmurodjon qizi**Andijon davlat universiteti Lingvistika yo'nalishi
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Omon Matjon she'riyatida muhim konseptlar va ularning lisoniy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif shoir ijodidagi asosiy g'oya va tushunchalarni aniqlab, ularning badiiy matnda qanday til vositalari orqali ifodalanishini yoritadi. Xususan, ramziy obrazlar, fonografik vositalar hamda stilistik birliklar orqali konseptlarning mazmuni ochib beriladi. Maqola o'zbek tilshunosligida badiiy matnni antroposentrik yondashuv asosida o'rganishga xizmat qiladi hamda she'riy nutqning semantik va estetik xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: konsept, idiolekt, metafora, epitet, personifikatsiya, tafakkur, kognitiv lingvistika.

Abstract: This article analyzes the key concepts in Omon Matjon's poetry and the linguistic features of their expression. The author identifies the main ideas and notions in the poet's works and explains how they are conveyed in the literary text through various linguistic means. In particular, the meanings of the concepts are revealed through symbolic images, phonographic devices, and stylistic units. The article contributes to the study of literary texts in Uzbek linguistics based on an anthropocentric approach and helps to gain a deeper understanding of the semantic and aesthetic features of poetic speech.

Keywords: concept, idiolect, metaphor, epithet, personification, cognition, cognitive linguistics.

Аннотация: В данной статье анализируются ключевые концепты в поэзии Омона Матжона и особенности их языкового выражения. Автор определяет основные идеи и понятия в творчестве поэта и раскрывает, какими языковыми средствами они выражаются в художественном тексте. В частности, содержание концептов раскрывается через символические образы, фонографические средства и стилистические единицы. Статья служит изучению художественного текста в узбекском языкознании на основе антропоцентрического подхода, а также способствует более глубокому пониманию семантических и эстетических особенностей поэтической речи.

Ключевые слова: концепт, идиолект, метафора, эпитет, персонификация, мышление, когнитивная лингвистика.

Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotida badiiy matnni o'rganishga bo'lgan yondashuvlar sezilarli darajada yangilanib, tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va ruhiy dunyosining aks etish shakli sifatida talqin qilish kuchaydi. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik va antroposentrik paradigma doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar til birliklarining ortida turgan konseptual mazmuni aniqlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu nuqtai nazardan, "konsept" tushunchasi tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biriga aylanib, u orqali milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va individual dunyoqarashning til vositalarida qanday ifodalanishi tadqiq etilmoqda.

Til tizimini o'rganishda zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblangan assotsiativ yondashuv til birliklarini ularning bevosita egasi – inson omilidan ajratgan holda tadqiq etishni inkor etadi. Mazkur yondashuv asosida olib boriladigan assotsiativ tahlil metodlari til materiallarini inson tafakkuri, idrok jarayoni va psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq

holda o'rganishni taqozo etadi. Bunda muayyan til egasining voqelikni qabul qilishi, uning kognitiv bilimlari, lisoniy salohiyati, xotira imkoniyatlari hamda leksik zahirasi asosiy tadqiq obyekti sifatida qaraladi. Assotsiativ tajriba natijalariga tayangan holda rivojlanadigan assotsiativ tilshunoslik, asosan, til birliklarini ularning nutqiy qo'llanishidan oldingi tabiiy, ya'ni ongdagi mavjud holatini tahlil qilishga yo'naltiriladi.

Til birliklarining inson ongidagi psixologik tasavvurlar asosida o'zaro bog'lanishi assotsiativ munosabat deb ataladi. Bu borada atoqli tilshunos A. Nurmonovning fikrlari alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, "...lisoniy birliklar nutq jarayonidan tashqari o'zaro qandaydir umumiy belgi asosida xotirada muayyan guruhlarga birlashib turadi. Masalan, ta'lim so'zi ongda maktab, kitob, muallim singari bir qancha so'zlar bilan bog'lanib turadi. Bunday munosabatning sintagmatik munosabatdan tamomila boshqacha xususiyatga egaligini ko'rish qiyin emas. Keyingi munosabat cho'ziqlikka ega emas, u miyada lokallashadi va har bir shaxsning xotirasida saqlanuvchi xazinaga mansub bo'ladi. Bunday munosabat assotsiativ munosabat hisoblanadi". Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, assotsiativ bog'lanishlar individual ongda shakllanadi va ular tilning ichki, psixik mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Antropotsentrik paradigma doirasida konsept tushunchasi ham markaziy ilmiy kategoriyalardan biri sifatida e'tirof etiladi. "Konsept" atamasi tilshunoslikda XX asrning birinchi yarmidan boshlab qo'llanila boshlagan bo'lib, keyinchalik kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalaridan biriga aylandi. O'zbek tilshunosligida mazkur tushuncha N. Mahmudov, Sh. Safarov, A. Mamatov kabi olimlar tomonidan turli jihatlarida izohlangan.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan konsept til orqali ifodalangan, anglangan va tasavvur etilgan g'oya yoki ma'no bo'lib, u insonning dunyo haqidagi bilimlari, tajribasi hamda tafakkur tarzini aks ettiradi. Konseptlar til vositasida shakllanadi va shu orqali inson ongidagi borliq modeli vujudga keladi. Shu sababli ular tilning semantik tuzilishini, funksional imkoniyatlarini hamda nutqiy faoliyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Konsept tushunchasi, asosan, kognitiv lingvistika doirasida o'rganiladi. Mazkur yo'nalish tilni inson tafakkuri va borliqni idrok etish jarayoni bilan chambarchas bog'liq holda talqin etadi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazariga ko'ra, til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning dunyoni qanday anglashini ifodalovchi tizimdir. Konsept esa inson ongidagi madaniy va ruhiy birlik bo'lib, u orqali inson real yoki ehtimoliy voqelik haqidagi barcha bilimlarini jamlaydi.

"Konsept atamasi tilshunoslikda, asosan, tildagi o'z ifodasi va lingvokulturologik mohiyatga ega bo'lgan tushuncha hamda ongli ravishda tasavvur va bilimlar to'plami sifatida ham qaraladi. Bu tushuncha va tasavvurlarning verballashgan fikrni ham anglatadi. Konsept milliy til va milliy tafakkurga tegishli elementdir. Abstraktlikning yuqori bosqichida semantik shakllanish konseptning o'ziga xosligidir".

O'zbek she'riyatining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan Omon Matjon ijodi mazkur yo'nalishda tadqiq etish uchun boy va serqirra material beradi. Shoirning poetik tafakkuri, obrazlar tizimi va individual uslubi orqali milliy ongda muhim o'rin tutgan Vatan, inson, vaqt, tabiat va ruhiy kechinmalar kabi konseptlar o'ziga xos badiiy talqinda ifodalanadi. Uning she'rlarida konseptlar nafaqat mazmuniy jihatdan, balki lisoniy vositalar: metafora, epitet, personifikatsiya, takror, sintaktik parallelizm va fonografik unsurlar orqali ham chuqur va ta'sirchan tarzda ochib beriladi.

Mazkur faslda Omon Matjon she'riyatidagi asosiy konseptlar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning lisoniy ifodalanish mexanizmlari kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritiladi.

Konsept inson ongida shakllangan, muayyan milliy-madaniy tajribani, emotsional va assotsiativ qatlamlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab semantik birlikdir. E.S. Kubryakova konseptni inson tafakkuridagi bilimlar majmui sifatida izohlaydi, V.A. Maslova esa uni til va madaniyat kesishgan nuqtadagi semantik tugun sifatida talqin etadi. O'zbek tilshunosligida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, konsept milliy tafakkur mahsuli sifatida izohlanadi.

O'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri Omon Matjon ijodida konseptual tizim o'ziga xos poetik tafakkur orqali namoyon bo'ladi. Shoir she'riyatida Vatan, inson, vaqt, tabiat va ruhiy kechinmalar asosiy konseptual birliklar sifatida ajralib turadi. Ushbu konseptlar nafaqat mazmuniy, balki lisoniy jihatdan ham boy ifoda vositalari orqali yoritiladi.

Omon Matjon ijodida tabiat obrazlari alohida konseptual tizimni tashkil etadi. Shamol, yomg'ir, daraxt, tun, quyosh kabi birliklar shoir she'rlarida faqat tabiat hodisalari sifatida emas, balki insonning ichki dunyosini ifodalovchi konseptual belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, shamol konsepti ko'pincha beqarorlik, ruhiy iztirob yoki ichki o'zgarishlarni anglatadi, tun konsepti esa yolg'izlik, tafakkur va ichki sukut bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu kabi obrazlar orqali shoir tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi assotsiativ bog'liqlikni yuzaga chiqaradi. Natijada tabiat konseptlari inson konsepti bilan integratsiyalashgan holda yagona semantik tizimni tashkil etadi.

Omon Matjon she'riyatida Vatan konsepti markaziy o'rin egallaydi va u ko'pincha muqaddaslik, mehr va sadoqat timsoli sifatida talqin qilinadi. Omon Matjon she'riyatida konseptlar tizimi ko'p qatlamli va murakkab semantik tuzilishga ega bo'lib, ular ko'pincha obrazli tafakkur orqali namoyon bo'ladi. Shoiring "Maqsudam", "Gaplashadigan vaqtlar" to'plamidagi she'rlar tahlili shuni ko'rsatadiki, konseptlar til birliklari orqali emas, balki ularning assotsiativ va metaforik imkoniyatlari orqali shakllanadi.

Avvalo, shoir ijodida "yurak" konsepti markaziy o'rin tutadi. Bu konsept biologik organ sifatida emas, balki insonning ichki olami, tafakkuri va ruhiy kechinmalarining markazi sifatida talqin qilinadi. Masalan:

"Bu tor siyna ichra bandisan abad,
Tabiatning senga rashki kelgandan."

Mazkur misolda "yurak" konsepti erkinlik va chegaralanganlik qarama-qarshiligi asosida ochib beriladi. Yurakning "bandi" sifatida tasvirlanishi inson tafakkurining cheklanganligini, shu bilan birga, uning ichki salohiyati cheksizligini anglatadi. Bu yerda konsept metaforik kengayish orqali falsafiy mazmun kasb etadi.

Shoir ijodida yana bir muhim konsept – "tun" konsepti bo'lib, u ko'pincha ruhiy holat, iztirob va yolg'izlik bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Quyidagi satrlarga e'tibor qaratamiz:

"Bul qarolig' – tun emas,
Yulduzlarni ko'zlasam."

Bu misolda tun oddiy vaqt birligi emas, balki subyektiv idrok mahsuli sifatida talqin qilinadi. Shoir tunni inkor etadi va uni insonning ichki qarashlari bilan bog'laydi. Natijada "tun" konsepti obyektiv hodisadan subyektiv-kognitiv birlikka aylanadi.

Bundan tashqari, Omon Matjon she'riyatida "tabiat" konsepti keng semantik maydonni egallaydi. Tabiat obrazlari inson ruhiyati bilan uzviy bog'langan holda ifodalanadi. Masalan:

"Daraxtlar yonmoqda bugun dunyoda,

...

Yuragimdir – YONAYOTGAN DARAXT!"

Bu yerda “daraxt” konsepti inson “yuragi” bilan tenglashtiriladi. Natijada tabiat va inson oʻrtasidagi chegaralar yoʻqoladi. “Yonayotgan daraxt” obrazi ichki iztirob, ruhiy kuchlanish va uygʻonish jarayonini ifodalaydi. Bu holat kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan konseptlarning metaforik xarakterini tasdiqlaydi.

Shoir ijodida “yoʻl” va “umr” konseptlari ham oʻzaro bogʻliq holda qoʻllanadi. Masalan:

“Umr – yoʻl, qayrilish – koʻp,
Uchrashish, ayrilish koʻp.”

Bu misolda umr bevosita yoʻl sifatida konseptuallashtiriladi. Bu esa kognitiv metaforaning klassik namunasi hisoblanadi (“HAYOT – YOʻL” modeli). Shoir bu orqali inson hayotining murakkabligi, undagi burilishlar va qarorlar tizimini ifodalaydi.

Shuningdek, shoir ijodida “nur” va “ilohiylik” konseptlari ham muhim oʻrin tutadi. Ular koʻpincha bilish, anglash va ruhiy yuksalish bilan bogʻlanadi:

“Munojot bandadandir, ragʻbat ilohiydin.”

Bu yerda ilohiylik konsepti inson va oliy kuch oʻrtasidagi bogʻliqlikni ifodalaydi. “Munojot” va “ragʻbat” birliklari orqali insonning ruhiy ehtiyoji va ilohiy manbadan keladigan ilhom oʻzaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini toʻldiruvchi hodisa sifatida talqin qilinadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Omon Matjon sheʼriyatida konseptlar koʻpincha koʻp qatlamli assotsiativ tizim asosida shakllanadi. Masalan, quyidagi misolda:

“Yigʻladingu... kuldin,
Bulutlar arib.”

Bu yerda “yigʻlash” va “kulish” qarama-qarshi holatlar boʻlsa-da, ular yagona konseptual tizimda birlashadi. Bulutning “arishi” esa inson ruhiyatidagi tozalanish jarayonini anglatadi. Bu holat assotsiativ tahlil uchun muhim material boʻlib xizmat qiladi.

Omon Matjon sheʼriyatida konseptlar va ularning lisoniy ifodasi masalasini chuqurroq yoritish uchun tadqiqotni bir necha muhim ilmiy yoʻnalishlar asosida kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, shoir ijodidagi konseptlarni faqat semantik birlik sifatida emas, balki kognitiv struktura, yaʼni inson tafakkurida shakllangan bilim modeli sifatida tahlil qilish zarur. Bunda konseptning yadrosi va periferiyasi ajratilib, uning qanday assotsiativ qatlamlar orqali kengayishi aniqlanadi. Masalan, “yurak” konsepti Omon Matjon sheʼriyatida oddiy anatomik tushuncha emas, balki his-tuygʻular, iztirob, sogʻinch va ruhiy kechinmalar markazi sifatida namoyon boʻladi. Uning periferik qatlamida “yonish”, “siqilish”, “daraxt”, “olov” kabi obrazlar paydo boʻlib, konseptning koʻp qatlamli tabiatini yuzaga chiqaradi.

Shuningdek, shoir sheʼriyatida konseptlar koʻpincha metaforik modellar orqali ifodalanadi. Bu jihatdan Omon Matjon ijodida kognitiv metafora muhim oʻrin tutadi. Masalan, “hayot – yoʻl”, “yurak – olov” yoki “iztirob – yonish” kabi modellar orqali shoir murakkab falsafiy tushunchalarni sodda, ammo chuqur obrazlar vositasida ifodalaydi. Bu holat konseptlarning til orqali emas, balki obrazli tafakkur orqali shakllanishini koʻrsatadi. Shu bilan birga, metaforik modellar tizimli xarakterga ega boʻlib, ular oʻzaro bogʻlanib, yaxlit konseptual maydonni hosil qiladi.

Konseptlarning lisoniy ifodasini oʻrganishda lingvopoetik vositalarning oʻrni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir konseptlarni ifodalashda metafora, metonimiya, ramz, takror, fonetik vositalardan keng foydalanadi. Masalan, “tun” konsepti nafaqat leksik birliklar (“tun”, “qorongʻu”), balki poetik vositalar (“qarolik”, “sukunat”) orqali ham ifodalanadi. Ayrim hollarda tovushlarning choʻzilishi yoki takrorlanishi orqali ham maʼno

kuchaytiriladi. Bu esa konseptning nafaqat semantik, balki fonetik darajada ham ifodalanishini ko'rsatadi.

Omon Matjon she'riyatining yana bir muhim jihati shundaki, unda konseptlar individual, ya'ni shoirning o'ziga xos idiolekti asosida shakllanadi. Masalan, "yurak" konsepti boshqa shoirlarda ham uchrasa-da, Omon Matjonda u "yonayotgan daraxt", "band siyna" kabi o'ziga xos obrazlar orqali ifodalanadi. Bu esa shoirning individual konseptosferasini shakllantiradi va uning poetik tafakkurini boshqalardan ajratib turadi.

Bundan tashqari, Omon Matjon she'riyatidagi konseptlar milliy-madaniy xususiyatlarga ham ega. Masalan, "daraxt" hayot va davomiylik ramzi sifatida, "nur" esa ilohiylik va ma'rifat belgisi sifatida talqin qilinadi. Bu konseptlar orqali shoir o'zbek xalqining mentaliteti va dunyoqarashini aks ettiradi. Natijada konseptlar nafaqat individual, balki umumxalq madaniy tajribasining mahsuli sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, Omon Matjon she'riyatida konseptlar alohida holda emas, balki o'zaro uzviy bog'liq tizim sifatida mavjud. Masalan, Vatan konsepti inson orqali ochiladi, inson konsepti esa vaqt va ruhiy kechinmalar bilan boyitiladi, tabiat esa bu jarayonlarning estetik ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu esa konseptual tarmoqning shakllanishiga olib keladi va shoir ijodining yaxlitligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, Omon Matjon she'riyatida konseptlar murakkab semantik tizimni tashkil etib, ular tilning turli vositalari orqali ifodalanadi. Metafora, epitet, personifikatsiya, antonimiya, sintaktik parallelizm va fonografik unsurlar ushbu konseptlarning lisoniy asosini tashkil etadi. Bu esa shoir poetik tafakkurining chuqurligi va badiiy mahoratini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзарасига муносабати. Танланган асарлар. III жилд. –Тошкент: Академнашр, 2012. – 341.
2. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск, 2008. – 266.
3. Кубрякова Э.С. Когнитивная лингвистика. – Москва, 2004.
4. Omon Matjon. "Maqsudam". – Toshkent: "Adabiyot". 2021. – 128 b.
5. Omon Matjon. "Gaplashadigan vaqtlar". –Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1986. – 200 b.